

Nabijonova Rohilaxon Muxiddin qizi, FarDU mustaqil izlanuvchisi



## ZULFIYA QUROLBOY QIZINING “MASHAQQATLI HAYOT SO‘QMOQLARI” ROMANIDA ADVOKAT OBRAZI TAHLILI

<https://zenodo.org/records/19842690>

**Annotatsiya:** maqolada Zulfiya Qurolboy qizining “Mashaqqatli hayot so‘qmoqlari” romanidagi obrazlar tahlilga tortildi. Advokat obrazi, ayol obrazi, ijtimoiy hayot tasviri tahlilga tortilib, ilmiy jihatdan qiyoslandi. Inson obrazi, kasb-koriga qarab xarakter yaratish mahorati belgilandi.

**Kalit so‘zlar:** obraz, advokat, ayol, jamiyat, hayot, tarbiya, ma’naviyat.

## АНАЛИЗ ОБРАЗА АДВОКАТА В РОМАНЕ ЗУЛЬФИИ КУРОЛЬБОЙ «ПУТИ ТРУДНОЙ ЖИЗНИ»

**Аннотация:** В статье анализируются образы в романе Зульфии Курольбой «Трудные жизненные пути». Проводится научный анализ и сравнение образа адвоката, образа женщины и образа общественной жизни. Определяется качество образа человека, мастерство создания персонажа в зависимости от его профессии.

**Ключевые слова:** образ, адвокат, женщина, общество, жизнь, воспитание, духовность.

## ANALYSIS OF THE IMAGE OF A LAWYER IN ZULFIYA KUROLBOY'S NOVEL "THE PATHS OF A HARD LIFE"

**Abstract:** This article analyzes the characters in Zulfiya Kurolboy's novel "The Difficult Paths of Life." A scholarly analysis and comparison is provided of the character of a lawyer, the character of a woman, and the character of public life. The quality of a person's character and the skill of character creation are determined based on their profession.

**Keywords:** character, lawyer, woman, society, life, education, spirituality

### Kirish

Badiiy adabiyotda insonning alohida shaxs qiyofasida yaratilgan, ayni paytda, badiiy umumlashma xususiyatiga va hissiy ta’sir kuchiga ega bo‘lgan surati badiiy obraz deyiladi. Obraz (*timsol*) tushunchasining keng va tor tushunchalari mavjud. Keng ma’nodagi obraz tushunchasi ijodkorning fikr-tuyg‘ulari singdirilgan hayot manzarasini anglatadi. Tor ma’noda esa badiiy asarda aks ettirilgan inson siymosini ifodalaydi. Advokat (lot. advocatus, advocare — yordamga chaqirish) — yuridik yordam ko‘rsatuvchi shaxs. Jinoyat ishlari bo‘yicha surishtiruv, tergov harakatlari yuritilganda va [sud](#) majlisida, fuqaroviy ishlar sudida, xo‘jalik nizolari xo‘jalik sudlarida yoki ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlar sudya

yoxud vakolatli organlar (mansabdor shaxslar) tomonidan ko'rilganda ishtirok etadi, [qonunda](#) belgilangan vakolatga ega bo'ladi.

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiya**

Badiiy asar obrazi bo'yicha adabiyotshunoslikka oid asarlarda ta'riflar berilgan. O'zbek adabiyotida A.Sa'diy, A.Fitrat, I.Sulton, H.Umurov, D.Quronov, T.Boboyev, A.Ulug'ov kabi olimlarning "Adabiyotshunoslikka kirish", "Adabiyotshunoslik nazariyasi", "Adabiyot nazariyasi asoslari" kabi darsliklarda obraz, obraz turlari haqida batafsil ma'lumot berilgan. Zulfiya Qurolboy qizining "Mashaqqatli hayot so'qmoqlari" asarida bir necha toifaga oid insonlar obrazini uchramiz. Romanning bosh qahramon Nazira Shodmonovaga huquqiy maslahat berish uchun asarda o'z o'rniga ega bo'lgan uchta advokat obraziga tasvirlanadi. Birinchisi –Yoqub aka, Yoshi oltmishlarga borgan tajribali huquqshunos, ham yaqin mahalladosh edi ayolga. Yoqub aka Shodmonovaga viloyatdagi dastlabki ijarachi tadbirkor bo'lishi uchun beminnat yordam berdi, lekin yoshi o'tib sog'ligi yomonlashib erta olamdan o'tdi. Bosh qahramonimiz uchun huquqshunos suv va havoday zarur edi, shu sababli ko'p o'ylab o'tirmasdan Po'lat Ergashevni ishga oldi, bu romandagi ikkinchi advokat obrazi edi. Naziraga rasmiy huquqshunos bo'lib yollangan ikkiyuzlamachi advokat Po'lat Ergashev tepadagilar qo'lida bir qo'g'irchoq huquqshunos edi.

### **Natija va muhokama**

Ayol Ergashevni bir ko'rgandayoq uncha xushlamagandi. Shodmonova o'z ishiga puxta savdogar edi, pul topishning halol va qonuniy yo'llarini juda yaxshi bilardi. Chunki u yirtiq kalish va qo'lida chaqaloq bilan Ko'chkak qishlog'idan chiqib ketib to'omadli savdogar bo'lguncha ozmuncha ter to'kmadi. Ammo ayolga yaltoqlanish va ikkiyuzlamachilik kabi illatlar begona edi, shuning uchun u hamma bilan, hatto, boshliqlar bilan ham hech qo'rqmay gaplashar, pora va harom ishlardan holi bir ayol edi. "Kattalar" ayolning shu xarakterini yoqtirishmas, zimdan uni yiqitish yo'llarini izlashardi. Po'lat Ergashevni shahar matbuot jamiyati raisi Anvar Bo'riyev yo'qlab, unga Nazira Shodmonovani o'yindan olib tashlash buyrug'ini bergandi. Chunki Bo'riyev va unga o'xshagan odamlar uchun Shodmonova xuddi baloyi ofatdek ko'rinardi. O'zlari egallab turgan mansablarini saqlab qolish va hakalak otib ketgan nafslarini qondirish uchun endigina kapitalizmga o'ta boshlagan yosh, navqiron davlatda yosh va iqtidorli, qolaversa, Naziradek o'zidan boshqa hech kimga ishonmaydigan savdogarlarga to'sqinlik qilishni o'zlariga sharaf deb hisoblashardi va shu yo'l bilan bunday kimsalar o'zlarining xizmat burchlarini chin dildan ado etayotganday bo'lardilar. Po'lat uchun esa pul topishning eng oddiy va oson usuli Bo'riyev va unga o'xshaganlarning etagini yalab, ularga laganbardorlik qilib, bergan topshiriqlarini ortig'i bilan bajarishdangina iborat edi, xolos. Ergashevni Shodmonova bir ko'rishdayoq yoqtirmagan esa-da, avval aytganimizdek, yangi tuzilayotgan korporatsiyaga huquqshunos juda zarur edi. Advokatning endigi vazifasi ish-hujjatlarni sinchiklab tekshirish, tadbirkor yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarni izlab topish, kichik anglashilmovchiliklarni ham atayin katta muammoga aylantirib, Shodmonovani bor-budidan mahrum qilish edi. Lekin ish u o'ylaganchalik oson kechmadi. Nazira opa har bir qadamini o'ylab bosar, olgan hamma tovarlari hisob-kitobli shartnoma asosida olingan edi. Hamma narsadan kamchilik qidirayotgan Po'latga bu unchalik yoqmasa-da, opaning qo'l ostida ishlagandan keyin ayol bilan murosa qilishga majbur

edi. Advokatning fikricha, Nazira boshqa ayollarga sira o'xshamas, matonatli, boshiga tushgan tashvishlarga andarmon bo'lib ishni tashlab qo'ymasdi. Aksincha, har bir harakatidan qat'iyat va shijoat sezilib turadigan, hech qachon charchashni bilmaydigan, bu hayotga faqat mehnat qilish uchun kelgandek chumoliday tinib bilmaydigan bu ayolning irodasi ham naq metinning o'zidek tuyulardi. Ergashev uning ustidan ichida o'zicha kulib" chaqib bo'lmas toshyong'oq" deb qo'yardi. Ammo har bir insonning bir nozik tarafi bo'lganidek Nazirada ham bu qusur yo'qmasdi. Ayolning eng nozik joyi - bu uning erkatoiy o'g'li Shavkat edi. Garchi ayolning Sodiq va Shokirdan (bu ikkalasi birinchi eri Jalildan edi) tashqari o'nta farzandi bo'lsa-da, lekin Shavkat olifta, o'yin-kulgiga berilgan, yengil hayotni yoqtiradigan, o'ttizga borib qolgan bo'lsa ham aql-hushini yig'ib olmagan bir g'o'r yigit edi. Ana shu o'g'li dushmanlarining o'ljasi bo'lishini ayol yetti uxlab tushida ham ko'rmagan bo'lsa kerak. Nazira Shodmonova uddaburon tadbirkor bo'lish bilan bir qatorda serfarzand ona ham edi, jami o'n ikki nafar farzandi bor edi. Biroq ish bilan band bo'lib bolalariga unchalik vaqt ajratolmas, bolalar tarbiyasini onasi Hamrobuviyga ishonib topshirgandi. Onasi hamisha bolalarga qattiq turardi, lekin "guruch kurmaksiz bo'lmaydi" deganlaridek Shavkat ham jilovlab bo'lmaydigan darajada takaslanglar xilidan edi, bu jihatlari otasi Jo'rabekka tortgandi, albatta. Dushmanlar esa yigitning yosh va tajribasizligi, qolaversa, sayoqligidan ustalik bilan foydalanishdi. Shavkatni qora doriga o'rgatishdi, irodasiz Shavkat esa g'animlar qo'lida o'yinchoq bo'ldi-qoldi. Og'u o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymadi, tez orada yigit o'ttizga ham kirishga ulgurmay bu olamni tark etdi. Doktorlar esa oddiygina qilib "dori miqdori ko'payib ketgan" deb qo'ya qolishdi. Bu, albatta, bizning uddaburon va uchar advokatimiz Po'lat Ergashevning hunari edi. U eski tanishi qahvaxonachi ayol Klarani bu ishga yolladi, ish esa juda oson "xamirdan qil sug'urgandek kechdi. Po'latning vazifasi shu bilan tugab qolmadi, u Shodmonova va uning o'g'li Shokirni qamatish, ularning shaxsiy mulklarini "kattalar" qo'lida taqsimlash ishlariga ham hissa qo'shdi. Bechora ayolning yemay-ichmay, tiyinni tiyanga urishtirib qilgan mehnatlari evaziga qo'lga kiritilgan mol-mulklar talon-taroj bo'ldi. Ikkita erdan ham yolchimagan ayolga oyoqqa turish, bola-chaqani boqish oson bo'lmagandi.

Shunday og'ir tashvishlar girdobida qolgan bo'lsa-da, ayol o'zini yo'qotmadi, to'g'ri, avvalgidek salomatligi yaxshi bo'lmasa ham, qiyinchilik va og'ir sinovlar ortidan "qand" kasalini orttirganiga qaramay butkul olam-jahondan voz kechib tarkidunyo qilib o'tirmadi. O'zini qo'lga olib yana harakat qilishga kuch topa oldi. Bu Nazira Shodmonovagagina xos bo'lgan xususiyat eddi. Buni Ergashev juda yaxshi bilardi. Nazar solib qaraganda, Po'latning ichida ikkita odam yashardi go'yo. Biri pulga o'ch, odamlarga "paxta" qo'yishni yoqtiradigan, pul uchun har qanday chirkin ishlardan ham toymaydigan "buqalamun" odam bo'lsa, ikkinchisi sal insofli, vijdon degan narsadan sal-pal xabardorroq odam edi. Shu ikkinchi qiyofadagi Po'lat Shodmonovaga doim qoyil qolardi, bu ayoldagi ko'tarinkilik va ayrim erkaklarda ham uchramaydigan o'ziga bo'lgan ishonch tuyg'usini ko'rib unga bo'lgan hurmati yanada oshardi-yu, har doim bu ayolning nimani rejalashtirib yurganiga qiziqardi. Chunki u xotin puxta ish qilar, ancha-muncha gaplarni huquqshunosga aytmasdan ham hal qilib yuboradiganlar toifasidan edi. Advokat tushunmasdi, nega manaman degan amaldorlar ham savdogar ayolga hukmini o'tkazolmas, u bilan munosabatlarda doimo

ehtiyotkor bo‘lib muomala qilishardi. Sababi oddiy edi, tijorat bobida odamlardan ancha ilgarilab ketgan Shodmonova hech bir ishiga porani aralash-tirmasdi, hamma ishini “toza”, haromdan holi bajarardi. Bu tarz-dagi ishlari bilan u boshliqlarga yoqmasligi bor haqiqat edi, shu sababli ular Naziraga pora berib, og‘zilarini moylab turishi kerakligini ta’kidlab turishsa ham ayol aytganlarini e’tiborga olmasdi. Savdogarning dushmanlari ko‘payishiga ham aslida haromdan hazar qilgani asosiy sabab bo‘lib qolgandi. Po‘lat Nazirani chuv tushirdi, mol-mul-kini o‘zlashtirib oldi. Lekin “haqiqat egiladi, bukiladi, sinmaydi” deb bejiz aytilmagan ekanmi, hartugul yorug‘ kunlar ham kelib qoldi. Mana shunday kunlarning ayolga yordam berish uchun Alloh tomonidan bir solih banda yuborildi, bu kishi toshkentlik advokat Sunnat Ahmedovich edi. Ota avlodi qozilardan bo‘lgan bu kishi adolat yo‘lida og‘ishmay bormoqdaydi, huquqshunosning Naziraga yo‘liqishi esa Allohning inoyati bo‘ldi. Oilada yaxshi tarbiya ko‘rgan Sunnat Ahmedovich butun umr “halollik” deb atalmish etiket qoidalariga rioya qilib yashadi, Savdogar bilan uchrashganda ham masalani tezgina ilg‘ab ishga kirishib ketdi. Halol odamning hech kimdan tili qisiq joyi bo‘lmaydi ekan, shuning uchun ham o‘ziga qilingan do‘q-po‘pisalar-u ogohlantirishlarga qaramay o‘z va’dasida sodiq qolib astoydil haqiqat uchun kurashdi. Huquqshunos degan nomga dog‘ tushirmaslik uchun qo‘lidan kelgancha ish yuritdi. Yoshi ancha katta bo‘lishiga qaramay hali ham avtobusda yurishini ko‘rib Po‘lat ham toza ajablangandi. O‘shanda o‘zim ham shunday halol yashashi mumkin edi-ku deb o‘ylagandi ham, lekin u vaqtda kech bo‘lgandi-da. Sunnat Ahmedovich kabi yuristlar ancha kamyob edi u vaqtlarda, axir kim ham o‘ziga mustal bo‘lib turgan dasta-dasta pullardan, poralardan voz kecha olardi. Bu mushkul ish edi, ko‘p odamlar bunday sehr oldida ojiz edilar va qanday qilib poraxo‘rga aylanib qolganini bilmay ham qolardilar. Biroq Sunnat akaga o‘xshagan halol odamlar ham yo‘q emasdi bu yorug‘ olamda. Advokat tinimsiz harakati va shijoati bilan tadbirkor ayolni himoya qilishga kirishdi, bu yo‘lda u qo‘lidagi bor imkoniyatlarni ishga soldi, halol odamning do‘sti ham halol bo‘ladi deganlaridek, Sunnat akaning ham o‘zidek diyonatli tanishlari ham yo‘q emasdi. Do‘stiga bor gapni aytib undan yordam so‘ragan advokat ish oldinga siljishiga ishonardi va natijada shunday bo‘ldi ham. Shomurodov bilan Sunnat Ahmedovich yoshlikdan ahil do‘st bo‘lib, bir-birini qo‘llab yurishardi. Shomurodov ham oshnasining halolligini bilar shu sababli uning hurmatini joyiga qo‘yardi. O‘zi respublikada manaman degan amaldorlardan bo‘lsa ham do‘stiga sodiq edi, o‘z navbatida, Sunnat aka ham o‘rtog‘ining kibrilanib ketmaganidan mamnun edi.

### **Xulosa**

Natija shu bo‘ldiki, Nazira Shodmonova nihoyat oqlandi, o‘zi ham, o‘g‘li ham ozodlikka chiqarildi. Buning ortida Sunnat Ahmedovich va uning amaldor do‘sti Shomurodovning hissalarini beqiyos edi.

### **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. T. Yangi asar avlodi. 2004, B. 108
2. Умуров Х. Бадий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. Т.: “Фан”. 1983. – 34 б.
3. Карим Б. Рухият алифбоси. – Тошкент, Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2018